



Comparative analysis of the study of complex syntactic constructions in English linguistics

Zebiniso KHAMRAYEVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised

form 15 August 2025

Accepted 15 September 2025

Available online

05 October 2025

Keywords:

Complex syntactic constructions, semantic analysis, derivation, intercomponent relations, communicative-pragmatic unit.

ABSTRACT

This article examines theoretical and practical aspects of complex syntactic constructions in the study of English syntax. Syntactic derivation — the process of forming complex sentences, including their structural mechanisms and semantic properties — has long attracted researchers' attention. The author analyzes the views of prominent linguists (M.A.K. Halliday, Ch. Matthiessen, J. Miller, S. Greenbaum, M. Tallerman, N. Burton-Roberts, R. Jackendoff, A. Radford, B. Blake, B. Aarts, R. Carter, W. Croft, and others) in the study of complex syntactic constructions in English. The article argues that complex syntactic constructions should be considered not only as grammatical structures but also as communicative-pragmatic units. It systematically analyzes the integrative, functional, and derivational properties of the components that form complex sentences and highlights the distinction between parataxis (coordination) and hypotaxis (subordination).

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss5-pp250-261>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Murakkab sintaktik qurilmalarning ingliz tilshunosligida o'rganilishining qiyosiy tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

Murakkab sintaktik qurilmalar, semantik tahlil, derivatsiya, komponentlararo munosabat,

Ushbu maqola ingliz tilshunosligida murakkab sintaktik qurilmalar masalasining nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga bag'ishlangan. Tilshunoslikda sintaktik derivatsiya, ya'ni murakkab gaplarning hosil bo'lish jarayoni, ularning tuzilish mexanizmlari va semantik xususiyatlari doimo tadqiqotchilar e'tiborida bo'lib kelgan. Muallif maqolada ingliz tilidagi

¹ PhD, Associate Professor, Samarkand State Institute of Foreign Languages.
E-mail: zebinisoXamrayeva25@gmail.com

kommunikativ-pragmatik
birlik.

murakkab sintaktik qurilmalarni o'rganish jarayonida yetakchi tilshunoslar — M.A.K. Halliday, Ch. Matthiessen, J. Miller, S. Greenbaum, M. Tallerman, N. Burton-Roberts, R. Jackendoff, A. Radford, B. Blake, B. Aarts, R. Carter, W. Croft va boshqalarning ilmiy qarashlarini tahlil qilgan. Maqolada murakkab sintaktik qurilma faqat grammatik tuzilma emas, balki kommunikativ-pragmatik birlik sifatida ham qaralishi zarurligi ta'kidlangan. Muallif qo'shma gaplarni tuzuvchi birliklarning integrativ, funksional va derivatsion xususiyatlarini izchil tahlil etgan hamda ularning parataksis (teng bog'lanish) va gipotaksis (tobe bog'lanish) asosidagi farqlarini yoritgan.

Сравнительный синтаксических языкознании

анализ изучения сложных конструкций в английском

Ключевые слова:

Сложные синтаксические конструкции, семантический анализ, деривация, межкомпонентные отношения, коммуникативно-прагматическая единица.

АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена освещению теоретических и практических аспектов проблемы сложных синтаксических конструкций в английском языкознании. В лингвистике синтаксическая деривация — то есть процесс формирования сложных предложений, их структурные механизмы и семантические особенности — всегда находились в центре внимания исследователей. В статье автор анализирует научные взгляды ведущих лингвистов, таких как М.А.К. Холидей, Ч. Маттиессен, Дж. Миллер, С. Гринбаум, М. Таллерман, Н. Бертон-Робертс, Р. Джекендорф, А. Рэдфорд, Б. Блейк, Б. Аартс, Р. Картер, У. Крофт и других, в процессе изучения сложных синтаксических конструкций английского языка. В работе подчёркивается, что сложная синтаксическая конструкция должна рассматриваться не только как грамматическая структура, но и как коммуникативно-прагматическая единица. Автор последовательно анализирует интегративные, функциональные и деривационные свойства единиц, образующих сложные предложения, и раскрывает различия между паратаксисом (сочинительной связью) и гипотаксисом (подчинительной связью).

KIRISH

Tilshunoslik fanida murakkab sintaktik qurilmalar mavzusi azaldan izohtalab bo'lib kelgan va bugungi kunda ham uning muhokomatalab muammolari mavjud. Buning asosiy sababi qo'shma gapda fikr ifodasi sintaktik shaklning eng yuqori va murakkab pog'onalaridan birini tashkil etishidadir. Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida kun tartibiga tilshunoslikda ilmiy paradigmalarning o'zgarishi, globallashuv davrida nutq masalalariga nafaqat madaniy jihatdan, balki uning fundamental muammolariga nazariy yondashish lozim bo'lgan tadqiqotlar qo'yilmoqda. Tilga jamiyatning millatlararo va

madaniyatlararo muloqot shakli sifatida qaralishi tobora keng tus olib borayotgan ayni davrda unga xos bo'lgan borliqning tilda aks etishi, tilning insonda namoyon bo'lishi masalalariga antroposentrik yondashuv orqali nazar tashlash hamda uning masalalariga ushbu yondashuv orqali yechim topish tilshunoslik oldidagi vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bugungi kunda ingliz tilshunosligi o'zining rivojlanish bosqichlarida tilshunoslik fani taraqqiyoti turli davrlarida erishgan yutuqlari va jahonda bu tilning o'rni, uni o'rganishga bo'lgan qiziqish, ehtiyojlardan kelib chiqqan holda ham nazariy, ham amaliy jihatdan keng ko'lam kasb etmoqda. Shunday ekan, ingliz tili materialining tadqiq etayotgan mavzumiz doirasidagi masalalariga e'tibor qaratmoqchimiz. Ingliz tilshunoslari tomonidan keyingi yillarda murakkab sintaktik qurilmalar tavsifiga qaratilgan tadqiqotlar katta miqdorni tashkil etadi.

O'RGANILGAN ADABIYOTLAR TAHLILI

M.A.K. Halliday va K.Matzesson (M.A.K.Halliday and Christian Matthiessen) "Funksional grammatikaga kirish" kitobida qo'shma gaplarni murakkab sintaktik qurilma sifatida tavsiflash jarayonida jummalarni murakkab qo'shma gaplarga birlashtirishda ma'no yaqinligi inobatga olinishini ta'kidlashgan. Ular murakkab qo'shma gaplarga ham, xuddi uning tarkibiy qismi sifatida qaralgan bo'laklar singari, ma'lum bir vaziyatni ifoda qiluvchi butunlikning tarkibiy qismi sifatida qaraganlar. Mazkur yondashuv semantik nuqtayi nazardan ekanligi izoh talab qilmaydi. Bu o'rinda mualliflar tomonidan murakkab sintaktik qurilma komponenti sifatida kelgan tub strukturalar yoki tayanch strukturalar integrativ xususiyatiga ko'ra murakkab qo'shma gaplarning barcha turdagi tiplari uchun xos ekaniga e'tibor qaratilgan. Mazkur ishda yana bir ahamiyatga molik tomon shundaki, bu o'rinda mazkur holat barcha turdagi matnlar uchun xosligi alohida ta'kidlangan (Halliday M.A.K., Ch. Matthiessen, 2004; 365 p.).

Masalan, *he pointed his arrow, but saw nothing* grammatik jihatdan murakkab qo'shma gapning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Ammo *he heard the faint rustling of leaves* and *he pointed his arrow* ushbu jumlaning qismlari bir-biriga semantik jihatdan bog'lanmagan bo'lishiga qaramasdan ular temporallik, yoki bo'lmasa voqe'likning sababini ko'rsatuvchi bo'lak sifatida birlashishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. ya'ni '*he heard the faint rustling of leaves* – keyin/so'ng [then/so] *he pointed his arrow*'. Lekin *he pointed his arrow, but saw nothing*. bilan semantik va grammatik jihatdan bir biriga juda ham yaqin bog'langanligiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Mualliflar xuddi shu o'rinda yozuchi/so'zlovchi o'z fikrini quyidagicha ifodalashi ham mumkin ekaniga ham ahamiyat berishadi: *As he came to a thicket, he heard the faint rustling of leaves, so he pointed his arrow. However, he saw nothing*. Qayd etish lozimki, tuzilgan mazkur mikromatn biroz boshqacha ma'noni ifodalamoqda (Halliday M.A.K., Ch. Matthiessen, 2004; 365 p.).

Biz keltirilgan mazkur fikrga qo'shilamiz. Biroq murakkab sintaktik qurilma derivatsiyasida uning sintaktikasiga e'tibor boshqa jihatlaridan ko'ra alohida ahamiyat kasb etishini ta'kidlashni o'rinli deb hisoblaymiz. Chunki har qanday semantik salmoq ham muayyan jumlada aks etadi. Shuni nazarda tutar ekanmiz, tub struktura va tayanch struktura asosida shakllangan har qanday sintaktik qurilma, avvalo murakkab sintaktik qurilma sanaladi, ikkinchidan, bunday qurilmalar lisoniy birliklarning qat'iy qonuniyati asosida derivatsion jarayonning mahsulidir.

J.Miller “Ingliz tili sintaksisiga kirish” kitobida sintaksisni tilshunoslik fanining boshqa sohalaridan ajratib qo’yishning to’g’ri bo’lmasligini ta’kidlaydi va har biri nisbiy avtonomlikka ega bo’lgan alohida leksik komponentlar, ular ichida, ayniqsa, fe’llar sintaktik qurilma shakllanishida katta ahamiyat kasb etishini, ular hosil bo’layotgan murakkab sintaktik qurilmani boshqarishini qayd etadi (J.Miller, 2002; 47 p.).

J.Miller qo’shma gaplar xususida fikr bildirganida, qo’shma gapning bir bosh gap va unga ergashgan bir yoki bir necha ergash gapdan tarkib topishini qayd etadi. Bosh gapning qurilma tarkibida hokim komponent sifatida tavsiflagan J.Miller ergash gaplarni unga muayyan cheklovlar asosida unga tobelangan bo’lishini ko’rsatib o’tadi (J.Miller, 2002; 47 p.). Mazkur ishda bosh gapdagi tushirib qoldirilgan ega, kesim, to’ldiruvchi va aniqllovchilarning o’rnini bosish uchun qo’llanuvchi ega ergash gap, kesim ergash gap, to’ldiruvchi ergash gap, aniqllovchi ergash gaplar haqida ham ma’lumot berilgan bo’lib, ularning funksional jihatini shu bosh gapda tushib qolgan shu bo’lakning o’rnini to’ldirishiga ahamiyat qaratilgan. Bu borada muallif mazkur ergash gap turlari o’zi mansub bo’lgan murakkab qurilmaning hokim komponentidagi o’zi xoslangan o’rnini mazmuniy to’ldirishini aytib o’tgan. Masalan:

a) Elizabeth regretted *that she had met Wickham*.

b) Catherine feared *that the Abbey was haunted*.

Kelitirilgan misollardagi bu ergash gaplar, odatda, bosh gapdagi oddiy o’tli birikmalar bilan band bo’lishi lozim bo’lgan mavjud bo’shliqlarni to’ldiradi.

Bizningcha, muallifning ushbu mulohazasi asoslidir. Ammo, fikrimizcha, bu o’rinda mazkur fikrning o’zi bilan cheklanish yetarli emas. Bunda qo’shma gapning bosh gapida tushib qolgan bo’lak emas, balki tushirib qoldirilgan bo’lak ekaniga ahamiyat qaratish lozim edi. Chunki bosh gapdagi biror bo’lak so’zlovchi yoki yozuvchining maxsus xohish istagisiz tushib qolmadi. Bunday bo’laklar so’zlovchi yoki yozuvchi tomonidan maxsus tushirilib qoldiriladiki, pirovard natijada hosil bo’lgan semantik bo’shliq tinglovchi yoki o’quvchining e’tiborini tortadi va unda shunga bog’liq bo’lgan semantik-kommunikativ ehtiyojni paydo qiladi hamda butun e’tiborini shunga qaratishga majbur qiladi. Ushbu vaziyatda ergash gap shunchaki kutilgan ma’lumotning o’zini emas, balki uni tom ma’nodagi barcha jihatlar bilan kommunikativ jarayonga taqdim etadi.

S.Grenbaum jumlaning fikr ifodasi, uning semantikasi xususidagi qarashlarga asoslanib, uning ta’rifiga munosabat bildirar ekan, bunday yondashuvga to’liq qo’shilmasligini ma’lum qiladi. Mazkur munosabatda qo’shma gap sifatida shakllangan qurilmada bir necha jumlaning birlashib, muloqot tizimida faollik olishi, kommunikativ vazifa bajarishi o’ziga xos grammatik mezonlarga asoslanishi qayd etiladi (Greenbaum S., 1996; 308 p.).

Biz mazkur fikrni ilmiy asosli deb bilamiz. Zotan, to’liq gaplar to’liqsiz gaplardan, gapning grammatik mezoni talablariga javob bera olmaydigan predikativ-kommunikativ nutqiy qurilmalar, elliptik gaplar – bularning barchasi bir-biridan ma’lum belgilari, ayrim xususiyatlari va struktur semantik, sintaktik-derivatsion tomonlariga ko’ra farqlanishi isbot talab qilmaydi (Greenbaum S., 1996; 308 p.).

S.Grenbaum murakkab sintaktik qurilmalar tarkibida sodda gaplar teng yoki ergashtirish orqali bog’lanishi mumkinligini qayd etadi. Muallif qurilma tarkibida teng bog’langan gaplar struktur jihatdan bir xil grammatik darajaga ega ekanini ta’kidlaydi. Ergash gapli qo’shma gaplar tipidagi qurilmalar tarkibidagi komponent sifatida kelgan

ergash komponent hokim bo'lakka ergashish, tobelanish yo'li bilan bog'lanadi, degan fikrni ilgari suradi. Boshqacha aytganda, u o'zigacha bu borada aytilgan aksariyat fikrlarga qo'shiladi (Greenbaum S., 1996; 308 p.).

S.Grenbaum bu boradagi fikrlarini davom ettirar ekan, uning nazarida, an'anaga ko'ra, gaplar sodda (ergash gapga ega bo'lmagan), qo'shma (ikki yoki undan ortiq tarkibli, ya'ni o'zaro tenglikka asoslangan – bog'langan qo'shma gap; tobe-hokim munosabatli, ya'ni ergashgan qo'shma gap) va murakkab (bir yoki bir nechta ergash gap bosh gap bog'langan yoki bir necha bosh gapga bog'langan ergash gapdan iborat) tiplarga bo'linadi. Bulardan murakkab tuzilishli qurilmalarning semantik va sintaktik belgilarini aniqlash va asoslash ularni tasniflashda muhim sanaladi. Shu bois ham, bu borada S.Grenbaum teng va ergashtirib bog'lanishning o'rtasidagi farqni parataksis va gipotaksis tushunchalari orqali asoslash kengroq imkoniyat berishini o'rinli deb hisoblaydi (Greenbaum S., 1996; 308 p.).

Biz bu borada S.Grenbaumning mulohazasini ma'qullaymiz. Chunki murakkab sintaktik qurilmalarning har qanday turida ham parataksis, gipotaksis tushunchalari va ularning mohiyati bilan bog'liq munosabatlar tom ma'noda mujassamdir. Bu sintaktik qurilmaning sintaktikasi bilan ham, semantikasi bilan ham bog'liqdir.

Fikrimiz dalilini ingliz tilshunoslaridan A.Dovning va F.Loklarning "Ingiz tili grammatikasi" (English grammar) kitobida ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra, murakkab sintaktik qurilmani taqozo qiluvchi qurilmada uni tashkil etuvchi gaplar ikki jihatdan bog'lanadi. Bu – sintaktik va semantik bog'lanishdir (Downing A., Locke Ph., 2006. 277 p.).

Mualliflarning ayni masalaga doir qarashlarida, sintaktik munosabatlar, asosan, teng maqomga ega bo'lgan jumlar o'rtasidagi ekvivalentlik yoki teng bo'lmagan maqomga ega bo'lmagan gaplar o'rtasidagi tengsizlik munosabatlaridir. Semantik munosabatlar kengaytma tushunchasi ostida guruhlangan bo'lib, bu orqali bir jumla qandaydir tarzda boshqasining ma'nosini kengaytiradi (Downing A., Locke Ph., 2006. 277 p.).

Albatta, bu qarashdagi fikr ham avvalgi qarashlarga monand bayon qilinganini kuzatamiz. Biroq semantik xususiyat borsida aytilgan munosabatda masala mohiyatining yaxshi tavsiflanganini ham qayd etishni o'rinli deb bilamiz.

M.Tallermannning "Sintaksisni anglash" (Understanding syntax) kitobida muallif gapning bosh harf bilan boshlanib, nuqta bilan tugaydigan (ekstrolingvistik) g'oyasi bilan ziddiyatga yo'l qo'ymaslik uchun men bu o'rinda aniqroq atama "band" tushunchasini iste'molga kiritishni xohlardim, degan fikrni bildiradi. M.Tallerman "band" atamasini alohida ma'noga ega, u bitta predikatni o'z ichiga olgan jumla, deb ta'riflaydi. Uning qarashlariga ko'ra, ba'zi gaplar bir banddan tashkil topgan bo'ladi.

M.Tallerman qayd etishiga ko'ra, sodda gaplar faqat bitta banddan iborat va ularning aksariyati yakuniy harakatni o'z ichiga oladi. Garchi ba'zi tillarda tugallangan harakatni bildirgan fe'l ishtirokisiz yoki umuman fe'lsiz jumlar ham shakllanishi mumkin bo'lsa ham, mazkur holatni inkor etib bo'lmaydi. Shu boisdan, shaxs ifodasi asosiy fe'l orqali ham, yordamchi fe'l orqali ham ifodalanishi mumkin. Bu jarayonda yordamchi fe'l har doim asosiy fe'l bilan birga keladi, u odatda shaxs ifodali bo'lmaydi. Ma'lumki, ingliz tilida jumla tarkibida shaxsli fe'l har doim shaxssiz fe'llardan oldin keladi. Jumla tarkibida agar yordamchi fe'llar mavjud bo'lsa, unda asosiy fe'l doimo ulardan keyin keladi. Jumladagi fe'lning infinitiv va kesim shakllari ko'pincha aspektual ko'makchilar bilan birikkan holda, turli toifadagi nutqiy jihatlarni yetkazib berishga xizmat qiladi. Shuningdek

M.Tallerman tavsifiga ko'ra, sodda gaplar qo'shilib, tarkibidagi barcha gaplari bir xil sintaktik maqomga ega bo'lgan murakkab gap turini hosil qiladi. Bundan tashqari, tobellikka asoslangan gaplar ham mavjud bo'lib, bunday gap qaysidir ma'noda boshqa gapga bog'liq bo'lgan gapdir. Masalan:

Main clause = matrix clause = root clause.

Subordinate clause = embedded clause (Tallerman M. 2004; 84 p.).

Shuni ham qayd etish kerakki, M.Tallerman murakkab sintaktik tuzilishli qurilmalar xususida fikr bildirganida, u mazkur qurilmalarning iyerarxik xususiyatlariga ham ahamiyat qaratgan. Bunda iyerarxik tuzilish nuqtai nazaridan qaralganda bosh gap murakkab sintaktik qurilma sintaktikasida asosiy o'rinni egallashi, ergash gap esa, faqat u orqali murakkab sintaktik qurilmaning derivatsion jarayoniga kirib borishini bayon qilgan. Ingliz tili misolida fikrini asoslashga harakat qilar ekan, muallif diqqatni bosh gapning kesimi bo'lib kelgan fe'lining shakliga qaratadi va uni har doim tugallik semasi bilan mustahkamlanganini e'tiborga oladi. Tobe komponentdagi fe'lda bunday holatning kuzatilmasligini ham eslatib o'tadi (Tallerman M. O'sha asar, 84 p.). Shuning uchun u bosh gapni qurilmadagi asosiy tayanch komponent sifatida qaraydi.

Biz bu borada M.Tallerman fikrlarini tahlil qilar ekanmiz, uning qarashlari an'anaviy grammatik qonuniyatlar prizmasida namoyon bo'layotganini qayd etamiz. Chunki, tahlillar jarayonida muallif semantik, grammatik va boshqa omillarni keskin farqlamagan.

K.Burjars va K.Burridje (Kersti Burjars, Kate Burridge) larning qayd etishicha, bandning tuzilishi, asosan, ma'lum bir fe'ning leksik sferasida shakllanadi. Biroq mualliflar mazkur ta'rif va tavsif hozirgi kunga qadar ham jumlaning ilmiy tavsifi sifatida qaralib kelinayotganini qayd etishgan. Bu borada mualliflar shuni ham alohida ko'rsatib o'tishadiki, unga ko'ra, agar band boshqa o'zidan kattaroq bandning bir qismi bo'lmasa, u jumlani tashkil qiladi va uni bosh gap deb ham atash mumkin.

We can listen to records and I'll probably dream up a few songs.

It's very nice to get married but I don't want to make a habit of it.

K.Burjars va K.Burridje ushbu ikkala jumlada bir-biridan butunlay mustaqil bo'lgan ikkita alohida band mavjudligini ko'rsatib o'tishgan. *Listen – can listen* fe'l qatorining bir qismi sifatida namoyon bo'lmoqda – gapning egasi *We* va undan keyin *to record* keladi va shuning uchun *listen* ushbu gapdagi barcha kerakli elementlarni o'z ichiga oladi. So'ng *and* bog'lovchisidan keyin yana bir to'liq band mavjud bo'lib, *I'll probably dream up a few songs*. Xuddi shunday, ikkinchi jumlada *but* ning ikki tomonida ham mustaqil ravishda tugallangan band mavjud. Ushbu ikkala misolda mos ravishda *and* va *but* bilan bog'langan ikkita jumla mavjud (Kersti Burjars, Kate Burridge, 2010; 189 p.). Mualliflar jumla va band xususidagi mulohazalarini bayon etish davomida, jumlalarning har doim shaxsli, lekin jumla bo'laklarini tashkil etuvchi bandlar shaxsli yoki shaxssiz bo'lishi mumkinligini ham ko'rsatib o'tishgan (Kersti Burjars, Kate Burridge, 2010; 189 p.). Nutqda har bir mustaqil fe'l distributsiyasida bandning shakllanishiga mualliflar alohida e'tibor qaratishgan. Masalan:

We intend to grow our hair even longer for the cause.

Keltirilgan jumlada ikkita mustaqil fe'l mavjud bo'lib, ular *intend* va *grow* fe'llaridir. Shu bois ham mazkur jumlada ikkita band bor. *Intend* fe'li distributsiyasida tuzilgan band to'liq, tugallangan gapni taqozo qilayotgan bo'lsa, *grow* fe'li asosida shakllangan bandda bu holatni kuzatib bo'lmaydi (misolda kursiv bilan yozilgan), uning predmeti mavjud emasligi

ko'zga tashlanadi. Ushbu jumlaning *'We intend that we shall grow our hair long for the cause.'* ko'rinishida transformatsiya qilishimiz ham mumkin bo'ladi (Kersti Burjars, Kate Burridge, 2010; 190 p.).

N.Barton-Roberts (Noel Burton-Roberts) o'zining gapning sintaktik tahliliga bag'ishlangan kitobida tobe komponentli sintaktik qurilmalar xususida fikr bildirar ekan, u tobe komponent deganda, odatdagi ergash gapni va hokim komponent sifatida bosh gapni nazarda tutadi. Fikr dalili uchun keltirilgan quyidagi misolida asosiy komponent tarkibidan tushirilgan, boshqacha aytganda uning tarkibida mavjud bo'lmagan to'ldiruvchini izohlashga xizmat qilgan to'ldiruvchi ergash gapli qo'shma gapni keltirgan:

Georgette said she burned the fritters.

Mazkur gapdagi *say* fe'li o'timli fe'l hisoblanib, uning to'g'ridan-to'g'ri (*she burned the pancakes*) obyektini vazifasini bajarmoqda. Yana shuni ham alohida e'tiborga olish lozimki, bu o'rinda uning o'zini shu holatda ham gap sifatida tahlil qilish mumkin.

I thought Georgette said she burned the fritters.

Qayd etilganidek, (*she burned the fritters*) – bu yuqorida yozilgan jumla tarkibida hokim komponentga ham tuzilish jihatidan, ham semantik tomondan bo'ysunuvchi va umuman murakkab sintaktik qurilmaning to'liq shakllanishi uchun xizmat qiluvchi tuzilma – band maqomidagi komponentdir. *Georgette said* bandi ikkinchi jumla tarkibida, o'z navbatida, *I thought* ga bo'ysunadi. Shunday qilib, mazkur jumlada band maqomidagi uchta element mavjud. Ushbu bandlar birlashib murakkab sintaktik qurilmani tashkil etmoqda (Noel Burton-Roberts, 2011; 178 p.).

Biz keltirilgan ushbu qarashlarning o'ziga xos ahamiyatli tomoni sifatida bandlar sifatida keltirilgan komponentlarning har birini sodda gap termini bilan atalmayotganida deb bilamiz. Muallifning bu xususdagi qarashlarini ma'qullaymiz. Biroq muallif bu jarayonda qo'shma gap tushunchasidan emas, balki tom ma'nodagi murakkab sintaktik qurilma tushunchasidan to'g'ridan-to'g'ri foydalanganida edi, uning qarashlarini anglash va ushbu masaladagi fikrlarining nazariy jihatdan asosli ekanini qayd etish oson kechar edi.

N.Barton-Roberts ham bandlarni belgilashda mustaqil fe'llarning maqomini alohida ahamiyatli deb baholaydi. Uning xulosalariga ko'ra, boshqa gapga tobe bo'lmagan band bosh gap deyiladi. Shunday ekan, bosh gapning kesimi vazifasidagi fe'l mustaqil fe'lidir. Qurilmadagi muhim komponent bosh gapdir (Noel Burton-Roberts, 2011; 178 p.).

Ko'rinadiki, mustaqil fe'l distributsiyasida uning valentlik darajalarining to'ldirilishi, hech bo'lmaganda mazkur valentlikning bittasining to'ldirilgan bo'lishi qurilmaga band maqomini olishga asos ekanini anglashimiz mumkin bo'ladi. Bizningcha, N.Barton-Robertsning murakkab sintaktik qurilmada hokim komponentning asosiy unsur sifatida nazarda tutilgan yondashuvi an'anaviy mantiqiy-grammatik yondashuvga tayangan. Nazarimizda, qurilmaning sintaktik derivatsiya nazariyasi asosidagi tahlilida bu maqom boshqa ishtirokchi unsurga, ya'ni qurilma komponentlarining o'zaro sintaktik aloqasini ta'minlash vazifasida kelgan bog'lovchi, bog'lovchi vazifasidagi boshqa vositalarga tegishlidir. Mazkur vosita sintaktik derivatsiyada operator deb yuritiluvchi bosh unsurdir. U derivatsiya jarayoniga chetdan olib kiriladi.

R.Jekendoff (Ray Jackendoff) katta miqdordagi ergash gaplarni tahlil qilar ekan, u ham mazkur tahlillari jarayonida ularni bandlarga ajratib o'rganish yo'lidan boradi. Tobe komponent sifatida kelgan band haqida fikr bildirar ekan, u bandlar gapda izchil ketma-

ketlikda kelishini, lekin ular ichida tartib butunlay erkin ekanini aytib o'tadi (Jackendoff R., 2002; 262 p.).

A.Radfordning qayd etishiga ko'ra, murakkab qo'shma gap bu birdan ortiq bandlarni o'z ichiga olgan jumladir (Andrew Radford, 2016. 494 p.).

B.Blakiy (B.Blakei) *band* atamasi kattaroq gapning bir qismi bo'lgan jumlani anglatadi (Blakei B., 2008. 88 p.), degan fikrni bildiradi. U o'z qarashlarini bayon etar ekan, quyidagi jumla ikkita qatorni o'z ichiga olganini, ularning har biri shunga qadar ta'riflanganidek, jumla sifatida namoyon bo'lgan. Bu, B.Blakiy ta'kidlaganidek, teng bog'lovchili murakkab qo'shma gap. U ikkita mustaqil band yoki mustaqil gapdan iborat: *[Virginia went to Richmond]* and *[Vanessa stayed in Bloomsbury]*.

B.Blakiy tobe-hokim munosabatni ko'rsatib berish uchun quyidagi jumalarni tahlil qilgan va ularning har biri ikkita komponent, mustaqil bosh gap va tobe yoki ergashgan banddan iboratligini ko'rsatib bergan:

1. *Vanessa knew [that her sister was depressed]*
2. *The two sisters talked, [while the children played in the garden].*
3. *Virginia knew the man [who married her sister]*

Muallifning qaydlarida ushbu qaydlar murakkab jumalardir. Bu qurilmalarda bir gap boshqasiga tobe bog'langan bo'lishi asosiy xarakterli jihat sifatida ko'rsatilgan. Bu uch misolning birinchisidagi *[that her sister was depressed]* bandi bosh gapdagi "knew" fe'lini to'ldirishga xizmat qilgan bo'lsa, ikkinchi misolda *[while the children played in the garden]* bosh gapiga nisbatan hol vazifasini bajarmoqda. Uchinchi misoldagi *[who married her sister]* band bosh gapdagi erkakni izohlab kelmoqda (Blakei B., 2008. 88 p.). Jumlar bir-biriga muvofiqlashtirilgan holda biriktirib, murakkab qo'shma gaplarni hosil qilishi mumkinligi haqida bildirilgan fikrida muallif ingliz tilidagi muvofiqlashtiruvchi birliklarga and, but, va or, hamda o'z-o'zidan, either... or birikmasi kirishini ta'kidlaydi (Blakei B., 2008. 88 p.).

Bunday qarash B.Aarts (Bas Aarts) qarashlarida ham ustivorlik qiladi. U o'zining qarashlarini shajara ko'rinishidagi matritsa orqali tasvirlab berar ekan, ushbu misolni keltiradi: *Tim thought that Kate believed the story*. Berilgan bu misoldagi *Kate believed the story* bandi hokim komponentdagi *that* so'zi orqali ifodalangan to'ldiruvchini tavsiflab, konkrerlashtirib kelgan (Bas Aarts, 2001; 53 p.).

R.Karter (Ronald Carter) gap grammatikaning eng katta birligi hisoblanishini odat tusiga kirib qolgan qarash deb munosabat bildiradi. Paragraflar va suhbat segmentlari kabi gapdan uzunroq birliklar matn sifatida qaralishi, odatda nutq (diskurs) birliklari hisoblanishini bayon qilgan. R.Karter nazarida, jumla asosan yozma grammatik birlik bo'lib, odatda, birinchi so'zdagi bosh harf va oxirgi so'zdan keyin nuqta bilan osongina aniqlanishini uning belgisi sifatida ko'rsatib o'tadi. Og'zaki nutq nuqtai nazaridan gap va uning tavsifi grammatik birlik sifatida muammoli hisoblanadi (Ronald Carter, Michael Mc Carthy, 2006; 486 p.).

R.Karter jumalarni bandlardan iborat bo'lishini aytib o'tgan. Uning qarashlaridagi ma'lumotlar gapni grammatikaning asosiy birligi sifatida xulosa chiqarishga olib keladi. Jumla deganda R.Karter murakkab sintaktik qurilmalarni nazarda tutadi va unda kamida bitta asosiy gap bo'lishi shart deb hisoblaydi. Uning fikricha, gap ikki qismdan iborat bo'lib, bu qismlar ega va kesimdir. U kesimni gapning tuzilishida asosiy komponent hisoblaydi va uning atrofida boshqa bo'laklarning qurshov hosil qilishini nazarda tutadi (Bas Aarts, 2001; 53 p.).

Murakkab sintaktik qurilma hosil bo'lishida ikki xil bandning birikishi kuzatiladi, bular hokim va tobelik belgilarini mujassam etgan bandlardir. Fikr isboti uchun keltirilgan misollarga murojaat etamiz.

Jumlalar:

I went to speak to them. (butun jumla bitta bosh gapdan tashkil topgan)

I went down to the fish and chip shop and I got fish and chips.

(ikkita o'zaro teng komponent *and* teng bog'lovchisi bilan bog'langan)

If I went down there, I could use the computer and the laser printer.

(Tobe-hokim munosabatli komponentlar *[if-clause]* yordamida birikmoqda)

R.Karter qarashlariga ko'ra bandlar *jarayonlar* (harakatlar, holatlar yoki hodisalar), *ishtirokchilar* (harakat, holatlar va hodisalarda harakat qiladigan yoki ishtirok etadigan yoki ularga ta'sir ko'rsatadigan odamlar va narsalar) va *holatlar* (masalan, vaqt, joy, uslub va harakatning atrof muhitdagi holati, hodisa) orasidagi munosabatni ifodalaydi (Bas Aarts, 2001; 491 p.).

An'anaviy yondashuvdan foydalangan holda, gaplar nechta (ega) subyekt va (kesim) predikatni o'z ichiga olganligi, shuningdek, ulardagi ergash gaplarning turlariga qarab tasniflanishi mumkinligi xususida B.Rouv va D.Levin (Rowe B., Levine D.) asosli fikr bildiradilar. O'z qarashlarida gap faqat bitta subyekt va bitta predikatdan iborat bo'lsa, uning sodda gap ekanini qayd etgan mualliflar (*The dog ran away.*) misolini keltiradilar. Mualliflarning fikriga ko'ra, sodda gaplarni murakkab jummalarga birlashtirish mumkin. Mazkur qarashlarini (*The dog and the cat ran away*) misoli bilan dalillaydilar. Bunday holda ikkita jumla *and* teng bog'lovchisi *ran away* ma'nolari ifodalangan. Ushbu murakkab jumlani tuzishda takrorni oldini olish maqsadida keraksiz elementlar chiqarib tashlanadi. Qo'shma gaplar quyidagi gapdagi kabi teng bog'lovchilarsiz ham tuzilishi mumkin: *We studied all day for the test; now it is time to rest.* Ushbu vaziyatda bog'lovchi o'rniga nuqtali vergul qo'yiladi. Qo'shma gap tarkibidagi ikkita sodda gap mualliflar fikriga ko'ra, mustaqil band hisoblanadi. Albatta, murakkab sintaktik tuzilishga ega bo'lgan gapda qo'llaniladigan ikkinchi tur gap ergash yoki tobe komponentdir. Tobe qism odatdagi sodda gap sifatida yakka holda mavjud bo'lolmaydi, u hokim komponentga birlashishi shart. Tobe gap ko'pincha nisbiy olmosh yoki tobe bog'lovchi bilan boshlanadi. Quyida tobe gaplarga misollar keltirilgan:

although it is tempting

who would be traveling with us

if I come late

Sodda gap va bir yoki bir nechta tobe gaplardan tashkil topgan gap murakkab gap deyiladi. Quyida murakkab jumlar mavjud:

Although it is tempting, I will not be going to Las Vegas.

These are the people who would be traveling with us.

If I come late, start without me.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil va kamida bitta ergash gapdan tashkil topgan qo'shma gaplar murakkab bog'langan qo'shma gaplar (compound-complex sentences) deyiladi. Masalan:

When the teacher assigned the reading for the exam, many students were stunned, but they agreed to study.

When the teacher assigned the reading for the exam ergashgan band; *many students were stunned* bu band alohida mustaqil ravishda mavjud bo'la olganligi sababli katta jumlaning bosh bandi hisoblanadi. Xuddi shu fikr keyingi bandga ham to'g'ri keladi (*they agreed to study.*) Mazkur bosh gap jumlaning oldingi ikki qismi bilan *but* teng bog'lovchisi ishtirokida bog'langan (Rowe B., Levine D., 2009; 105.p).

Yuqoridagi xatboshida keltirilgan B.Rouv va D.Levin (Rowe B., Levine D.) qarashlarida sodda gap, murakkab gap, qo'shma gap singari birliklar xususida asosli nazariy xulosalar berilgan bo'lsa ham, mualliflar, bizningcha, murakkab gap tushunchasi bilan qo'shma gap tushunchasining mohiyatini bir-biriga yaqin tarzda ifodalamoqdalar. Bunda predikativlik belgisi sintaktik qurilmaning maqomini belgilashda olinishi lozim edi. Mualliflar bu jarayonda predikativ munosabatni hisobga olishgan.

Murakkab sintaktik qurilmalar haqidagi masalalar borasida Uilyam Kroft (William Croft) tomonidan bildirilgan fikrlarni ham o'rganish bu masalaga oid ayrim qarashlarga aniqlik kiritishga yordam beradi. Uilyam Kroftning qarashlariga ko'ra, teng va tobe bog'lanishlarning farqli jihati ulardagi nisbiy mustaqillik masalasiga borib taqaladi. Uning nazarida teng komponentli qurilmalardagi har bir komponent alohida-alohida gap bo'la oladi. Tobe bog'lanishli qurilma qismlarida ushbu masala teng komponentli qurilmalardagiga qaraganda, farqlidir. Tobe-hokim bog'lanishli munosabatlarda u bosh gapning maqomini yuqori qo'yadi. Bunga sabab sifatida mazkur qismning sodda gap sifatida ham kela olishini ko'rsatadi (William Croft., 2001; 348-349 p.). Nazarimizda, U. Kroftning bu mulohazasi izohtalabdir. Chunki bu qarashda qo'shma gaplar sodda gaplardan tuziladi, degan yanglish xulosaning takrorlanishini ko'rish mumkin. Qo'shma gapni ham gapning turi sifatida qarash munozaralidir. Zotan, gap gapning ichiga sig'maydi, boshqacha aytganda, gap bilan gap qo'shilishi yana gapni hosil qilishi til va nutq birliklarining iyerarxik qonuniyatiga ziddir (Xayrullayev X., 2008. 70 b.).

U.Kroft ergashgan qo'shma gaplar xususida mulohazalarini bayon qilganida, bunday qurilmalarda mavjud bo'lgan ikkita band sintaktik jihatdan teng emasligini ko'rsatib o'tgan (William Croft., 2001; 321-322 p.).

Albatta U.Kroftning bu munosabatlarida ham asosli o'rinlar ko'p. Biroq U.Kroft mazkur qarashlarining jumla semantikasi bilan bog'lab izohlagan. U bandlarning sintaktik muvozanati xususidagi qarashlarida bunga yetarlicha ahamiyat qaratmagan. N.Kirvaldedze ("Ingliz tili nazariy grammatikasi kursi" (Theoretical course of english grammar) kitobida bandlar haqida fikr bildiradi. Uning fikricha, barcha asosiy bandlar mustaqil bandlar bo'la olmaydi. Ba'zan bosh gaplar ham sintaktik aloqalarsiz alohida tuzilmaydi. Chunki unda tom ma'nodagi predikativlik mavjud bo'lmasligi mumkin. Bunday hollarda eganing yoki uning obyektining o'rne qushimcha ergash gap bilan to'ldiriladi. Egaga yoki ega to'ldiruvchisi (ya'ni, nominal predikatlar) bo'lgan o'zaro bog'langan qo'shma gaplar band egalari yoki band kesimlaridir. Masalan, "*That Chris liked Lee so much didn't surprise me*" gapida to'liq bo'ysunuvchi gap "*That Chris liked Lee so much*" uning predmeti sifatida bosh gapga kiritilgan (agar siz ergash gapni *it* olmoshi bilan almashtirsangiz, buni ko'rish oson: "*It didn't surprise me.*"). Ayni shu narsani quyidagicha aytish ham mumkin – "*The problem is that she doesn't love him at all.*" – unda predikat yo'q va uning o'rnini "*that she doesn't love him at all.*" degan o'rnatilgan bo'ysunuvchi komponent – band egallaydi. Bu bo'lak bosh gapning predikati ekanligining dalili shundaki, uning o'rniga "*difficult*" kabi sifat qo'shish mumkin: "*The problem is difficult.*" (Kirvalidze N., 2013; 74 p.).

Umuman olganda, ingliz tilshunosligida ham murakkab sintaktik qurilmalarning derivatsion va semantik xususiyatlari bobida qilingan ishlar o'rganilganida, mazkur qurilmalarning mantiqiy-grammatik tavsifining chuqur tadqiq etilganining guvohi bo'lish mumkin. Bu esa, o'z navbatida, murakkab sintaktik qurilmalarning nutqdagi kommunikativ-funksional va kognitiv-pramatik xususiyatlarining tom ma'noda inson omili ta'sirida zohir bo'luvchi xususiyatlarini bugungi kun ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan tadqiqotlarga ehtiyoj saqlanib qolayotganidan dalolat beradi.

XULOSA

Ingliz tilshunosligida murakkab sintaktik qurilmalarni o'rganish masalasi turli davrlarda turlicha talqin etilgan bo'lsa-da, mazkur tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, murakkab sintaktik tuzilmalar nafaqat grammatik birlik, balki ma'no va kommunikativ-funksional jihatdan ham muhim nutqiy birlikdir. Murakkab sintaktik qurilmalarni faqat grammatik konstruksiya sifatida emas, balki kommunikativ-pragmatik birlik sifatida ko'rish ularning semantik-funksional mohiyatini to'liq ochib beradi. Shuningdek, tahlillar shuni ko'rsatadiki, murakkab gaplarning tarkibiy qismlari o'rtasidagi interkomponent munosabatlar nafaqat sintaktik, balki kognitiv va pragmatik omillar bilan ham belgilanadi.

Bugungi tilshunoslikda bu masalaga antroposentrik yondashuv orqali qarash, ya'ni tilni inson tafakkuri va muloqot faoliyati bilan bevosita bog'liq hodisa sifatida tahlil qilish, murakkab sintaktik qurilmalarni o'rganishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Shu bois, ushbu yo'nalishda olib boriladigan izlanishlar nafaqat nazariy sintaksisni, balki amaliy tilshunoslikni ham boyitadi. Natijada, murakkab sintaktik qurilmalarni o'rganishda derivatsion mexanizmlarni aniqlash, semantik strukturalarni tahlil qilish, bandlararo bog'lanishlarni differensial yondashuv asosida ko'rib chiqish, shuningdek, ularning kommunikativ-funksional yukini aniqlash hozirgi zamon ingliz tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Andrew Radford. Analysing English Sentences. Second edition. The UK: Cambridge University Press. 2016. – P. 494;
2. Bas Aarts. English syntax and argumentation. Second edition. The US: Palgrave Publishers Ltd. 2001. – P. 53;
3. Blakei B. All about language. Oxford: Oxford University Press. 2008. – P. 88;
4. Downing A., Locke Ph. English grammar. A University course. Second edition. The USA and Canada: Routledge Press. 2006. – P. 277;
5. Greenbaum S. The oxford English grammar. the United States. Oxford University Press Inc., – New York. 1996. – P. 308;
6. Halliday M.A.K., Ch. Matthiessen. An Introduction to Functional Grammar. – Great Britain: Arnold, a member of the Hodder Headline Group. 2004. – P. 365;
7. J.Miller. An introduction to English syntax. Edinburg: Edinburg University press. 2002. – P. 47;
8. Jackendoff R. Foundations of language. Brain, meaning, grammar, evolution. The US: Oxford University Press Inc., 2002. – P. 262;
9. Kersti Burjars, Kate Burridge. Introducing English grammar 2nd edition. – Great Britain: Hodder Education, an Hachette UK Company. 2010. – P. 189;

10. Ronald Carter, Michael Mc Carthy Cambridge grammar of English: A comprehensive guide. Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – P. 486;
11. Rowe B., Levine D. A concise introduction to linguistics. 2nd edition. New York: Routledg, 2009. – P.105;
12. William Croft. Radical Construction Grammar. Syntactic Theory in Typological Perspective. the UK: Oxford University Press. 2001. – P. 348-349;
13. Хайруллаев Х. Нутқ бирликларининг поғонали муносабати. – Самарқанд, 2008. –70 б.